

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.08.2022.T.61.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**BABAJANOV MANSURBEK BEKDURDIYEVICH**

**TEBRANMA HARAKAT YO‘NALISHINING QUMLI GRUNTLAR  
TURG‘UNLIGIGA TA’SIRI**

05.09.02 – Geotexnika (Asoslar, poydevorlar va yer osti inshootlari.  
Gruntlar va tog‘ jinslari mexanikasi)

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Babajanov Mansurbek Bekdurdiyevich**

Tebranma harakat yo‘nalishining qumli gruntlar turg‘unligiga ta’siri.....3

**Бабажанов Мансурбек Бекдурдиевич**

Влияние направления колебаний на устойчивость песчаных грунтов.....23

**Babajanov Mansurbek Bekdurdiyevich**

Influence of vibration direction on the stability of sandy soils.....45

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....48

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.08.2022.T.61.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**BABAJANOV MANSURBEK BEKDURDIYEVICH**

**TEBRANMA HARAKAT YO‘NALISHINING QUMLI GRUNTLAR  
TURG‘UNLIGIGA TA’SIRI**

05.09.02 – Geotexnika (Asoslar, poydevorlar va yer osti inshootlari.  
Gruntlar va tog‘ jinslari mexanikasi)

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/T2140 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)), Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.instmech.academy.uz](http://www.instmech.academy.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rasulov Hayat Zairovich**

texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Salyamova Klara Djabbarovna**

texnika fanlari doktori, professor

**Sultanov Toxirjon Zokirovich**

texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**G‘.O. Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.02/30.08.2022.T.61.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “27” fevral soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100125, Toshkent sh., Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 33-uy, 1-majlislar zali. Tel.: (99871) 262-71-52; faks: (99871) 262-71-32, e-mail: [instmech@academy.uz](mailto:instmech@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 20 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent sh., Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 33-uy. Tel.: (99871) 262-71-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “12” fevral kuni tarqatildi.

(2023 yil “14” dekabrda 1 - raqamli reyestr bayonnomasi).

**D.A. Bekmirzayev**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, t.f.d., katta ilmiy xodim

**N.A. Nishonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.b.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

**B.E. Xusanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yangi qurilayotgan muhim ahamiyatga ega bo'lgan bino va inshootlarning umrboqiyiligini oshirishda, ularning zamini va poydevorlarining mustahkamligi hamda ustuvorligini ta'minlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. So'nggi yillarda yuz bergan kuchli zilzilalar oqibatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, zamin gruntlarining quyqalanishi ko'plab bino va inshootlarning shikastlanishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda, xususan, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda turar-joy binolari, gidrotexnika, yo'l, meliorativ va boshqa inshootlarning mustahkamligi va seysmik barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, inshoot zamini gruntlarining seysmik mustahkamligi va turg'unligini oshirish, zaminning yuk ko'tarish qobiliyatini baholashning samarali usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda inshoot zaminidagi gruntlarning statik va dinamik ta'sirlardagi mustahkamlik va deformatsiya xususiyatlarini inobatga olib hisoblash nazariyasi va tajriba usullarini takomillashtirish bilan bog'liq ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, gruntlarning seysmik mustahkamligi va turg'unligini oshirish, ularning deformatsiyalanishini baholashning samarali usullarini ishlab chiqish sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanmoqda. Bu borada seysmik tebranishlar yo'nalishining grunt tuzilmasining mustahkamligiga ta'sirini o'rganish va zaminlarning yuk ko'tarish qobiliyatini hisoblash usulini ishlab chiqish zilzilabardosh qurilish amaliyotida dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda qurilish industriyasini rivojlantirish, qurilayotgan bino va inshootlarning zilzilabardoshligini ta'minlash hamda ularning zamin gruntlarining mustahkamligini oshirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida, jumladan, "...qurilish faoliyatida qurilish nuqsonlari yoki muammolarining oldini olish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish"<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda seysmik ta'sirlardagi gruntlarning yuk ko'taruvchanligi va deformatsiyasining o'zgarishini hisobga olgan holda qumli zamin gruntlarining ustuvorligini ta'minlash usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydagi PF-144-son "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyuldagi PQ-4794-son "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023 yil 16 maydagi PQ-158-son "O'zbekiston

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining XIV. "Seysmologiya, binolar va inshootlar seysmik xavfsizligi va qurilish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qumli gruntlarning dinamik xossalarni o'rganish, zilzilalar ta'sirida gruntning mustahkamligi va deformatsiyasining o'zgarishini tadqiqotlash, shuningdek qumli gruntli bino va inshootlar zaminlarining ishlash holatini asoslash bo'yicha xorijda Seed H.B., Harder L.F., Vaid Y.R., Thomas J., Kokusho T., Tanaka Y., Shannon W.L., Diletrich R.J., Rayatama L., Fukui F., Burland J.B., Gersevanov N.M., Maslov N.N., Florin V.A., Goldshteyn M.N., Ivanov P.L., Musaelyan A.A., Mavlyanov G.A., Zexniyev F.F., Axmedov D.D., Ruziyev A.R., Osipov V.I., Stavnitser L.R., Abramova T.T., Voznesenskiy YE.A., Eysler L.A., Shkitskiy Y.P. va boshqalar shug'ullanib, ushbu masalalarni hal qilishda fanning rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Respublikamizda qumli gruntlarda inshootlar zamini muammolari, bunday gruntlardan muhandislik inshootlarini qurish, bo'sh gruntlarning seysmik mustahkamligi, inshootlarning grunt bilan o'zaro ta'siri va boshqa amaliy muhim tadqiqotlar H.Z.Rasulov, G.X.Xojmetov, K.S.Sultonov, I.U.Majidov, K.D.Salyamova, A.Z.Xasanov, A.D.Kayumov, R.H.Rasulov, Y.N.Chastoyedov, S.Sayfiddinov, M.Sh.Shermatov, A.Jo'rayev, B.M.Mardonov, A.U.Toshxo'jayev va boshqalar tomonidan olib borilgan hamda rivojlantirilgan.

Sohaga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tebranishlar yo'nalishi gruntning strukturaviy mustahkamligiga ta'siri va zaminning yuk ko'tarish qobiliyatini o'zgarishi yetarlicha o'rganilmagan. Shundan kelib chiqqan holda, gruntning mustahkamligini oshirishda tebranishlar yo'nalishini hisobga olish hamda seysmik ta'sirlarda bino va inshootlar zaminlarining yuk ko'tarish qobiliyatini baholash bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish talab etilmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish instituti ilmiy-tadqiqot ishi rejasining №4 OT-F4-75 "Kuchli zilzilalar ta'sirida gruntlar mustahkamlik xossalarni o'zgarishini hisobga olib inshoot zaminining yuk ko'tarish qobiliyatini baholash usulini ishlab chiqish" (2017-2020) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tebranma harakat yo'nalishining suvga to'yingan qumli gruntlar quyqalanishiga ta'sirini aniqlash va ushbu jarayonda gruntning turg'unligini baholash usulini takomillashtirishdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tebranma harakat yo'nalishining suvga to'yingan qumli gruntlar muvozanat tezlanishiga ta'sirini hisoblash usulini ishlab chiqish;

tebranma harakat yo'nalishining qumli gruntlar turg'unligiga ta'sirini tadqiq

etish uskunasi yangi konstruksiyasini ishlab chiqish;

tebranma harakat yoʻnalishining turli burchaklardagi taʼsiri natijasida muvozanat va seysmik tezlanishlar orasidagi bogʻlanishni, eksperimental tadqiqotlar asosida aniqlash;

suvgʻa toʻyingan qumli gruntlar seysmik turgʻunligini taʼminlash va ularning quyqalanishiga qarshi muhandislik usullarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Respublikamiz hududida bino va inshootlar zaminini vazifasini bajaruvchi turli fizik-mexanik xossalarga ega boʻlgan qumli gruntlar olingan.

**Tadqiqot predmetini** seysmik taʼsirlardagi bino va inshootlar zaminining yuk koʻtaruvchanligi va qumli grunt strukturasi mustahkamligiga turli burchak ostida taʼsir etuvchi tebranma harakat yoʻnalishining taʼsirini aniqlash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, gruntlar mexanikasi, oliy matematikaning fundamental qonun va qoidalari, eksperimental tadqiqotlar hamda grafik-analitik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

suvgʻa toʻyingan qumli gruntlar turgʻunligiga tebranma harakat yoʻnalishining taʼsirini hisobga olgan holda zamin gruntlarining muvozanat tezlanishini aniqlash usuli takomillashtirilgan;

seysmik taʼsirlarda suvgʻa toʻyingan qumli gruntlarning quyqalanishi, choʻkishi va ustuvorligini, tebranma harakat yoʻnalishini eʼtiborga olgan holda, eksperimental aniqlash uskunasi ishlab chiqilgan;

tebranma harakat yoʻnalishining turli burchaklardagi taʼsiri natijasida muvozanat va seysmik tezlanishlar orasidagi bogʻlanish, yangi ishlab chiqilgan maxsus tebranma uskunasi yordamida aniqlangan;

suvgʻa toʻyingan qumli gruntlarning seysmik turgʻunligini aniqlash va ularning zichligini oshirish hisobiga quyqalanishining oldini olish boʻyicha muhandislik usuli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tebranma harakat yoʻnalishini hisobga olgan holda, bino va inshootlar qumli zaminining yuk koʻtarish qobiliyatini aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

seysmik taʼsirlarda gruntli zamin ustuvorligiga tebranishlar yoʻnalishining taʼsirini hisoblash dasturi ishlab chiqilgan;

qumli gruntlarning dinamik turgʻunligini taʼminlash va ularning quyqalanishini oldini olishning muhandislik usullari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishida muammoning yechimi nazariy jihatdan qurilish mexanikasi, gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar hamda qurilish konstruksiyalarida qabul qilingan gipotezalar shuningdek, analitik hisoblash usullaridan olingan yechimlarning tasdiqlangan dasturiy taʼminot tizimlaridan foydalanib, zamonaviy nazorat va oʻlchash uskunalarini yordamida eksperimental tadqiqotlar bajarilganligi ishning ishonchliligini taʼminlaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli burchak ostidagi seysmik taʼsirlarda gruntlarning yuk koʻtarish qobiliyatini aniqlashning nazariy va eksperimental usulini ishlab chiqilganligi bilan

izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tebranma harakat yoʻnalishi taʼsirida gruntning strukturaviy mustahkamligi, turgʻunligi va zilzilabardoshligini aniqlashga imkon beradigan usul ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Tebranishning turli burchaklarida, shuningdek, ulardan yuqori seysmik hududlarda bino va inshootlar zaminining yuk koʻtarish qobiliyatini hisoblashda foydalanish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tebranma harakat yoʻnalishining qumli gruntlar turgʻunligiga taʼsirini baholash boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

seysmik taʼsirlarda qumli grunt muvozanat tezlanishi va dinamik turgʻunligini eksperimental aniqlash usuli Xorazm viloyati uchun bino va inshootlar zamin va poydevorlarini loyihalashda qoʻllanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligining 2023 yil 14 iyundagi №08-06/5619-sonli maʼlumotnomasi). Natijada Xorazm viloyati uchun loyihalangan turar-joy binolarining zamin va poydevorlarini zilzilabardoshligini taʼminlash imkonini bergan;

suvgʻa toʻyingan qumli gruntlar dinamik turgʻunligini taʼminlash va ularning quyqalanishiga qarshi muhandislik usullari Xorazm viloyati uchun loyihalangan turar-joy binolarining zamini va poydevorining seysmik ustuvorligini taʼminlashda qoʻllanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligining 2023 yil 14 iyundagi №08-06/5619-sonli maʼlumotnomasi). Natijada bino va inshootlar zamin va poydevorlarini zilzilabardoshligini taʼminlab, binoning umumiy tannarxini 20 foizgacha kamaytirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy va ilmiy-texnik anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 15 ta ilmiy ishlar, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola, jumladan xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan hamda 1 ta EHM dasturi uchun guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish qismi, toʻrtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 96 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida olib borilgan tadqiqot ishining zaruriyati va mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatlari bayon etilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilinganligi, ishonchliligi asoslangan, nashr etilgan ishlar, Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Qumli gruntlardan zamin sifatida foydalanishning oʻziga xos xususiyatlari**” deb nomlangan birinchi bobida oʻrganilayotgan

muammoning holati va tahlili keltirilgan.

Ma'lumki, yer yuzasidagi seysmik tebranishlar zilzila o'chog'idan turli yo'nalishda tarqaluvchi seysmik to'lqinlar ta'sirida yuzaga keladi. Ushbu to'lqinlar gruntga nisbatan o'zlarining yo'nalishlari bo'yicha ta'sir ko'rsatadi. Bunda inshootda yuzaga keluvchi momentga nisbatan gorizontal yo'nalish ahamiyatli bo'lsa, zamin qa'ridagi gruntning turg'unligiga nisbatan esa ma'lum burchak ostida yo'nalgan to'lqinning ta'siri xavfli bo'lishi mumkinligi haqida so'nggi yillarda olib borilgan izlanishlarning natijasi ko'rsatdi. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda ushbu holatni nazarda tutib dissertatsiyada quyidagi masalalarni ilmiy hal etishni lozim deb topildi:

1. Respublika hududidagi qumli gruntlarning geomorfologik tuzilmasi va donadorlik tarkibini o'rganish.

2. Qumli gruntlarning dinamik turg'unligini ifodalovchi ko'rsatkich – muvozanat tezlanishini va unga ta'sir etuvchi omillarni baholash.

3. Turli burchak ostida yo'nalish bo'ylab tebranma harakatlanuvchi uskuna yaratish va tajriba usullarini ishlab chiqish.

4. Turli yo'nalishdagi tebranma harakat ta'sirida muvozanat tezlanishini tajribada aniqlash.

5. Muvozanat tezlanishiga tebranma harakat yo'nalishini ta'sirini hisobga olish usulini ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasining markaziy va shimoliy qismi qadimiy Qizilqum va Qoraqum sahrolarida joylashgan bo'lib, ikki daryo (Amudaryo va Sirdaryo) vohasini qamrab olgan. Sahrolarning ustki qismini barxan shaklidagi eol turiga mansub uchlamchi davrga oid neogen qum qatlamlari egallagan. O'ta g'ovak, changsimon zarralar aralashgan tekis sirtga ega bo'lgan mayda zarralardan tashkil topgan ushbu qumlarning qatlami 8-10 m, ba'zi joylarda esa 20-25 m qalinlikda joylashgan. Ularning ostida esa neogen yoshiga mansub asosan mayda zarrali qumlar orasida bo'sh sementlangan qumtosh qatlamchalar uchraydi. Neogen qumlarning sirti notekis (g'adir-budur) bo'lganligi bois ular nisbatan zich joylashgan.

Eol va neogen qumlari tutashuvida qalinligi 3m qalinlikkacha bo'lgan qattiq holatdagi loyli qumlar (supes) qatlamchalari uchraydi.

Shunday qilib, Respublika hududining so'z yuritilayotgan qismida asosan to'rtlamchi davrga mansub allyuviy va eol turiga oid qumlar, ularning ostida esa yuqori uchlamchi davrga oid neogen turiga mansub qum qatlamlari joylashgan. Ushbu gruntlar, asosan mazkur tegralardagi shahar va qishloqlarda barpo etiluvchi bino va inshootlar zaminini tashkil etadi.

Mazkur tegralarda sizot suvlarining yuqori sathi to'rtlamchi davrga oid allyuviy qum qatlamlarida joylashgan. Yer osti suvlari sathining chuqurligi 1,5 - 5m oralig'ida bo'lib, asosan minerallashgan va betonga nisbatan zararlidir.

Tektonik jihatdan Respublikaning shimoliy qismi 7 ballik, muhandis – geologik nuqtai nazardan seysmomikrotumanlashtirishga oid izlanuvlar natijasiga ko'ra 7 ballik zilzila sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hududga kiradi.

Tadqiqotlar Xorazm viloyatida maxsus izlanishlar uchun olingan 4 ta qum namunalari ustida olib borildi. Fizik-mexanik ko'rsatkichlari bo'yicha ularni quyidagi 4 guruhga ajratilgan.

I - guruh. Yengil loyli qumlar: loysimon zarralar 3-6%, changsimon zarralar 5,0-13% va qumli zarralar 81-91%. Ularda o'ta mayda qumli zarralar (0,1-0,05 mm)ning o'rtacha miqdori – 48,5 -72,3%.

II - guruh. Ochiq sariq rangli eol turkumiga mansub silliq sirtli changsimon qumlar. Ularda loysimon zarralar 1,5 – 2,4%. Changsimon zarralar 2,1 - 10,8%, qum zarralari 87,0 - 96,3%. Mazkur guruhdagi qumlarda o'ta mayda zarralar (0,1 - 0,05 mm) 21,8 - 31,4%, mayda zarralar (0,1 – 0,25 mm) esa 44,0 - 61,5%. Ushbu gruntlar bir jinsli qumlardir.

III - guruh. Oq-sariq rangli notekis sirtga ega bo'lgan neogen turkumidagi qumlar. Ularda loyli zarralarning miqdori 1,7 - 1,9 %, changsimon zarralar 0,8 – 10 %, qumli zarralar esa 90,0 - 97,2 %, mayda zarralar (0,1 - 0,25 mm)ning umumiy miqdori - 64,0 - 84,0 %. Ushbu grunt qatlamlari qa'rida bo'sh sementlangan qumtoshlar uchraydi.

IV - guruh. Oq-sariq rangli bir jinsli (qo'shimchasiz) allyuviy turkumiga mansub mayda qumlar. Ularda loyli va changsimon zarralar uchramaydi. Mayda zarralar (0,1 - 0,25 mm)ning miqdori 68,0 - 71,5 %.

Qumning dinamik hossalari ichida zarralar zichligi va uning eng yuqori va eng quyi ko'rsatkichlari alohida o'rin tutadi. Ushbu ko'rsatkichlar zarralar sirtining tekis yoki notekisligiga bog'liq ravishda o'zgarishini yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda kuzatish mumkin.

Ma'lumki, qumli gruntlar zichligini baholashda ularning nisbiy zichlik ko'rsatkichi " $I_D$ "dan foydalanish yaxshi natija beradi va uning yordamida qumlarning zichlik holatini taqqoslash mumkin.

Gruntning nisbiy zichligi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$I_D = \frac{e_{max} - e_0}{e_{max} - e_{min}}, \quad (1)$$

Bunda  $e_{max} - e_{min}$  - qumning eng g'ovak va eng zich holatiga oid g'ovaklik koeffitsiyentlari.

$e_0$  - qumning tabiiy holatdagi g'ovaklik koeffitsiyenti.

**Qumli gruntlarning dinamik ta'sirida quyqalanishi.** Qumlarning dinamik ta'sirga nisbatan noturg'un hisoblanishi o'tgan asrning boshlaridayoq fanga ma'lum bo'lgan edi. Bu haqida dastlabki ma'lumotlar 1935 yilda Rossiyaning shimolidagi Svir daryosida barpo etilgan to'g'onda yuz bergan avariyaning ko'zdan kechirgan komissiyasi hisobotida yoritilgan.

Qumli gruntlarning dinamik hossalari tadqiqotlash ishlari keyinchalik N.M.Gersevanov, V.A.Florin, N.N.Maslov, P.L.Ivanovlar tomonidan keng miqyosda olib borildi va natijada "Qumlar tuzilmasini dinamik ta'sirda buzilishi" nazariyasi yaratildi.

Dinamik ta'sir ostida grunt ikki holatda bo'lishini bildiradi, ya'ni:

- tuzilmasi buzilmagan tabiiy sharoitdagi suvga to'yingan;
- to'la quyqa holatda bo'lishligi.

Ushbu nuqtai nazardan qumli gruntlarda barpo etilgan inshootlarning turg'unligi asosan ikki omil: muvozanat holati va gruntning xususiy og'irligiga bog'liq.


“Suvga to‘yingan qumlar turg'unligining sizish nazariyasi” ushbu sharoitdagi qumlarning dinamik ta'sirda turg'unligini buzilishi gruntning siljishga qarshiligini, mustahkamligini kamayishiga asoslanadi.

Unga ko'ra qumlarning dinamik ta'sirda siljishga qarshiligi ( $S_{din}$ ) muvozanat holatiga ( $S_M$ ) nisbatan kam bo'lishi kuzatiladi. Shu bilan birga ularning quyqalanish holati bilan kechadigan turg'unligini butunlay yo'qotishi, siljishga qarshilik miqdorini nolga teng bo'lishi kuzatiladi. Bu esa, o'z navbatida, suvga to‘yingan qumlarning siljishga qarshiligi ( $S_{din}$ ) ularning muvozanat holatidan dinamik holatiga o'tish jarayonida quyidagi oraliqda o'zgarishini ifodalaydi:

$$S_M \geq S_{din} \geq 0 \quad (2)$$

$S_M \geq S_{din}$  shart qumlarning siljishga qarshiligi ikkala sharoitda ham o'zgarmas ekanligini ifodalaydi. Ushbu shart grunt zichligining yuqori qiymati, yoki o'ta kuchsiz tebranish jarayonini ifodalaydi.  $S_{din} \geq 0$  bo'lganda grunt turg'unligini butunlay yo'qotib “quyqalanish” holatiga o'tganligini ko'rsatadi va ushbu holatda zamin kichik miqdordagi yukni ham ko'tara olmaydi. Ushbu holatda har qanday inshoot birdaniga katta miqdorli cho'kishga duchor bo'ladi.

Dissertatsiyaning “**Muvozanat tezlanishi va gruntning dinamik turg'unligi**” deb nomlangan ikkinchi bobida muvozanat tezlanishi  $\alpha_M$  ni tajriba yordamida aniqlash uchun maxsus jihozlangan tebranma harakatlanuvchi uskunadan foydalaniladi. Uskunaning asosiy qismlaridan birini tajriba maqsadiga muvofiq tayyorlangan tebranuvchan idish tashkil etadi. Idish dastavval 1/3 qismi suv bilan to'ldirilib, so'ng suvli idishga asta sekinlikda oz-ozdan qum to'ldiriladi. Ushbu jarayonda idishdagi ortiqcha suv uning yuqori qismiga o'rnatilgan maxsus teshikka ulangan shlang orqali chiqib ketadi. So'ng idishdagi qumning boshlang'ich zichligi aniqlanadi. Idish tajriba uchun zarur bo'lgan omillarni qayd etuvchi maxsus moslamalar (datchiklar) bilan jihozlangan bo'lib, tebranma uskuna asta – sekin harakatga keltiriladi. Uskunaning harakati tebranish ko'rsatkichlaridan (amplituda yoki chastota) birini doimiy saqlab, ikkinchisini o'zgarishi hisobiga amalga oshiriladi. Ushbu jarayon o'lchov asboblari yordamida uzluksiz qayd etib boriladi va tajriba yakunida yozib olingan tasmani tahlillash orqali muvozanat tezlanishi  $\alpha_M$  aniqlanadi (1- rasm).



**1-rasm. Uskunaning tebranish harakati yozuvi (A-tebranish amplitudasi, T-tebranish davri)**

**Muvozanat tezlanishi  $\alpha_M$  ni aniqlashning hisobiy usuli.** Hozirgi vaqtda ma'lum darajada o'z samarasini bergan yechimlardan biri bir jinsli yarim fazo sirti

bilan tarqalayotgan tekis to‘lqinning o‘zaro munosabatiga asoslangan yechimdir. Uning negizida seysmik urinma zo‘riqish miqdorini aniqlashning Rasulov H.Z. tomonidan taklif etilgan ifoda quyidagi ko‘rinishda shakllangan:

$$\tau_c = \frac{\gamma_n}{\pi g} 2 H \alpha_c, \quad (3)$$

bunda:  $\gamma_n$  – gruntning solishtirma og‘irligi;  $H$  – tebranuvchi qatlam qalinligi;  $g$  – erkin tushish tezlanishi;  $\alpha_c$  – zilzila jarayonida grunt tebranishining tezlanishi.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda izlanishni ushbu yo‘nalishga oid nazariy va tajriba usullaridan foydalanildi. Maqsad inshoot zamini vazifasini o‘tovchi grunt qatlami turg‘unligiga nisbatan seysmik yo‘nalishning ta‘sirini tadqiq etish asosida grunt tuzilmasi turg‘unligiga nisbatan xavfli yo‘nalishni aniqlash va uni meyoriy hujjatlarda qabul qilingan gorizontal yo‘nalishga nisbatan farqini aniqlashdan iboratdir.

Ushbu maqsadda tadqiqotlarni nazariy yondoshuv asosida boshlab, turli yo‘nalishda tebranuvchi uskuna yaratish va unda turli gruntlarda tajribalar o‘tkazish rejalashtirildi va amalga oshirildi. Quyida ushbu yo‘nalishda bajarilgan izlanishlar bayon etiladi.

Tebranma harakat yo‘nalishini muvozanat tezlanishiga ( $\alpha_m$ ) ta‘sirining nazariy yechimiga quyidagilar asos qilib olindi.  $H$  qalinlikdagi grunt qatlami bir tekisda tebranadi deb faraz qilamiz. Bunday holatda qatlam qa‘ridagi har bir zarraning muvozanat holati ikki kuch: zarra turg‘unligini saqlovchi ( $\tau_q$ ) va uni siljishga olib keluvchi ( $\tau_c$ ) ta‘sirida bo‘ladi. Tebranish jarayonida zarra turg‘unligini ta‘minlovchi kuch gruntlar mexikasining qonuni bo‘yicha inshoot va gruntning sof og‘irligidan ta‘sir etuvchi bosimning tik yo‘nalish bo‘yicha tashkil etuvchisi ( $\sigma_d$ ), gruntning ichki ishqalanish burchagi ( $\varphi_n$ ) va qumli gruntning zichligiga ( $n$ ) bog‘liq bo‘lgan zarralararo bog‘lanish kuchlarining ( $c_n$ ) miqdoriga bog‘liq.

Grunt qatlami  $H$  qa‘ridagi har bir zarra ta‘sir etuvchi tashqi kuchga nisbatan quyidagicha qarshilik ko‘rsatadi:

$$\tau_q = \sigma_d \operatorname{tg} \varphi_n + c_n \quad (4)$$

(4) ifodadagi indekslar ko‘rsatkichlar bog‘liq bo‘lgan omillarni ifodalaydi, ya‘ni:  $\tau_q$  – siljishga nisbatan qarshilik;  $\sigma_d$  – inshoot va gruntning sof og‘irligidan ta‘sir etuvchi inersiya holatidagi bosim;  $n$  – g‘ovakligi.

Grunt qatlamiga ta‘sir etuvchi tashqi kuch sifatida zarralarni muvozanat holatidan siljishga majbur etuvchi seysmik bosim qabul qilinadi. Ushbu bosim seysmik to‘lqinlar tarqalishi jarayonida yuzaga keluvchi urinma zo‘riqish  $\tau_s$  sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda grunt qa‘ridagi har bir zarraning yuqori muvozanat holati  $a_m$  (muvozanat tezlanishi) quyidagi tenglik orqali ta‘minlanadi:

$$\tau_q = \tau_s \quad (5)$$

(5) ifoda bo‘yicha muvozanat tezlanishi  $a_m$  tebranayotgan gruntning muvozanat holatini eng yuqori chegarasi hisoblanadi. Unga ko‘ra tebranish tezlanishning  $0 - \alpha_m$  oralig‘ida grunt o‘z muvozanat holatini saqlab, elastik jism sifatida qaraladi. Ushbu holatda grunt o‘z tuzilmasini saqlaydi ( $\varphi_n, c_n = \text{const}$ ) va uning siljishga qarshiligi ( $\tau_s$ ) qatlamda inshoot – zamin tebranishidan yuzaga keluvchi inersiya holatidagi bosim ta‘sirida aniqlanadi ( $\sigma \neq \text{const}$ ).

Seysmik urinma zo'riqish ( $\tau_s$ ) va uning grunt qatlami bo'ylab tarqalishi seysmik to'lqinlarning bir jinsli va ko'pjinsli qatlamlar bo'ylab tarqalishiga oid dinamik masalalarni yechish orqali hal etiladi. Mazkur masalalarning murakkablik darajasi inshoot barpo etiluvchi mintaqaning seysmik faolligi, uning geologik va gidrogeologik sharoitlariga bog'liqdir.

Shuni aytib o'tish lozimki, grunt qatlamining seysmik zo'riqish holatiga oid masalalar yechimining murakkablik darajasi nafaqat uning muhandis – geologik va gidrogeologik sharoitlari, balki zilzilaning harakteri va vaqt bo'ylab o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarning mavjud emasligi bilan ham ortib boradi. Odatda, ushbu ma'lumotlar zilzila sodir bo'lgandan so'ng ma'lum bo'ladi. Shu bilan birga zilzilaning kuchi (seysmik koeffitsiyent) qurilish olib boriluvchi tegra uchun tuzilgan seysmik mikrorayonlashtirish haritasi, ba'zan esa kutilayotgan zilzilaning spektr tarkibiga qarab taxminan ma'lum bo'lishi mumkin.

Seysmotektonik ma'lumotlar asosida bo'lg'usi zilzilaning o'chog'i (gipotsentr) aniqlanib, uning yordamida, agar mazkur qatlam bo'ylab garmonik to'lqin tarqalishga oid yechim mavjud bo'lganda, maydon sirtiga nisbatan seysmik to'lqinlar tarqalish burchagi va qatlam bo'ylab siljish, deformatsiya va zo'riqishlar aniqlanishi mumkin.

Hozirgi vaqtda bir jinsli grunt qatlami bo'ylab tarqaluvchi tekis to'lqin bilan maydon sirti orasidagi ta'sirga oid masalaning yechimlari ma'lum.

Gruntning mustahkamlik ko'rsatkichlariga seysmik to'lqin yo'nalishining ta'siriga oid izlanishlar so'nggi yillarda Stavnitser L.R., Kokusho T., Tanaka Y., H.Z. Rasulov va b. lar tomonidan olib borilgan.

Masalan, tekis to'lqinning yarim fazo chegarasi bilan tutashuvi haqidagi masala seysmik siljishning skalyar  $\xi$  va vektor  $\psi$  potensiallari yordamida H.Z. Rasulov tomonidan hal etilgan bo'lib to'lqinlar tarqalishi jarayonida gruntga ta'sir etuvchi urinma zo'riqish ( $\tau_s$ ) umumiy holda quyidagi ko'rinishda ifodalangan:

$$\tau_s = 4\gamma \frac{v_k^2}{v_6^2} c_k \xi e^{-i\omega \frac{x\xi^1}{v_b}} \left[ \cos \frac{\omega H}{v_6} - e^{-i\omega \frac{H}{v_k}} \right] + 2i\gamma v_k c_v \sin \frac{\omega H}{v_v} e^{-i\omega \frac{x\delta^1}{v_k}}, \quad (6)$$

bu yerda  $v_k$ - ko'ndalang to'lqin tarqalish tezligi;  $v_6$ - bo'ylama to'lqin tarqalish tezligi;  $c_k$ - ko'ndalang to'lqinning (xoz) tekisligiga nisbatan proyeksiyasi;  $c_v$ - shu to'lqinning xoz ga perpendikulyar bo'lgan tekislikka proyeksiyasi;  $\omega$  – aylanma chastota;  $\xi$ - seysmik to'lqinning grunt sirti tomon yo'nalishi;  $H$  – qatlam qalinligi;  $\gamma$ - gruntning solishtirma og'irligi.

Ushbu ifoda asosida quyidagi amallarni bajarish mumkin.

Agar quyidagi bog'liqliklar nazarda tutilsa

$$e^{ix} = \cos x - i \sin x$$

$$e^{-i\omega \frac{x\xi^1}{v_b}} = 1, \quad e^{-i\omega \frac{H}{v_k}} = \cos \frac{\omega H}{v_k}, \quad e^{-i\omega \frac{x\delta^1}{v_k}} = 1 \quad (7)$$

gruntga ta'sir etuvchi seysmik urinma zo'riqishni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$\tau_s = 2\gamma \frac{v_k^2}{v_6^2} \frac{\alpha_c}{\omega} \xi \left[ \cos \frac{\omega H}{v_6} - \cos \frac{\omega H}{v_k} \right] + \gamma \frac{v_k \alpha_c}{\omega} \sin \frac{\omega}{v_k}, \quad (8)$$

bunda  $\alpha_c$ - tebranish jarayonida grunt harakatining tezlanishi.

Grunt qatlamining sirti tomon seysmik to'liqning yo'nalishi ( $\xi$ ) ni  $\beta$  burchak ostida deb qaralsa:

$$\xi = tg\beta, \quad (9)$$

To'liqlarning grunt sirtidan qaytishi zarralar tebranishini 3-4 marta ortishi (interferensiya effekti) ga olib kelishini A.Z.Kats quyidagicha ifodalagan:

$$\frac{H}{\lambda} = \frac{(2n-1)}{4}, \quad n = 1, 2, 3, \dots \quad (10)$$

bu yerda  $H$  – qatlam qalinligi.

S.V.Medvedevning takidlashiga ko'ra tebranish davri ( $T$ ) grunt sharoitida bog'liq bo'lib, bir jinsli qatlamlar uchun quyidagi tenglik yuzaga keladi:

$$T = \frac{4H}{v_k} \quad (11)$$

Ma'lumki bo'sh grunt qatlami bo'ylab tarqaluvchi bo'ylama va ko'ndalang to'liqlar orasidagi farq katta miqdorni tashkil etmaydi. (masalan, QMQ 2.01.03-19, bo'yicha mayda va changsimon qumlarda ushbu farq 0.25% dan oshmaydi).

(9) - (11) va yuqoridagi mulohazalar asosida (8) ifodani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\tau_s = \gamma \frac{\alpha_c}{\pi g} 2H + \gamma \frac{\alpha_c}{2\pi g} H tg\beta \quad (12)$$

yoki

$$\tau_s = \frac{\alpha_c}{\pi g} (2H\gamma + \frac{\gamma H}{2} tg\beta) \quad (13)$$

(4) va (13) ifodalar asosida tebranayotgan grunt qatlami qa'ridagi istalgan nuqtada joylashgan zarraning siljishga qarshi muvozanat holati (5) ga asosan quyidagi tenglik asosida yuzaga keladi:

$$\sigma_d tg\varphi_n + c_n = \frac{\alpha_c}{\pi g} (2H\gamma + \frac{\gamma H}{2} tg\beta) \quad (14)$$

Ushbu ifodada  $\alpha_c$  tebranayotgan grunt muvozanat holatining yuqori chegarasini, ya'ni **muvozanat tezlanishini** ifodalaydi:

$$\alpha_M = \frac{\pi g (\sigma_d tg\varphi_n + c_n)}{2H\gamma + \frac{\gamma H}{2} tg\beta} \quad (15)$$

yoki

$$\alpha_M = \frac{2\pi g (\sigma_d tg\varphi_n + c_n)}{\gamma H (4 + tg\beta)} \quad (16)$$

(15) va (16) ifodalar tebranayotgan zich holatdagi qumli grunt qatlamining muvozanat holatini umumiy shaklda aks ettiradi. Undan gruntning muvozanat tezlanishi zarralar aro ishqalanish kuchi ( $\varphi$ ) dan tashqari grunt zichligiga bog'liq bo'lgan bog'lanish kuchi ( $c_n$ ) va qatlamga ta'sir etuvchi inshootdan tushayotgan bosim ( $\sigma_d$ ) ta'sirini ham kuzatish mumkin.

Shu bilan birga tabiatda qumlar g'ovak va o'rtacha zichlik holatida (allyuviy, eol va b.) bo'lishi amalda ko'plab kuzatiladi. Mazkur qumlarda  $c_n$  bo'lmasligi, yoki uning miqdori juda kam bo'lishligini nazarda tutilsa (16) ifodani quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:

Unga ba'zi o'zgartirishlar kiritib quyidagi ifoda olindi.

$$\alpha_M = \frac{2\pi g \sigma_d tg\varphi_n}{\gamma H (4 + tg\beta)}, \quad (17)$$

yoki  $\sigma_d = \gamma_w z + p_d$  (bunda  $\gamma_w z$  – kuzatilayotgan sathdan yuqorida joylashgan gruntning sof og‘irligi,  $p_d$  – inshootdan uzatiluvchi inersiya ta’sirini nazarda tutuvchi bosim)ni hisobga olinsa va  $p_d = 0$  holat uchun:

$$\alpha_M = \frac{2\pi g \gamma_w z t g \varphi_n}{\gamma H (4 + tg\beta)} \quad (18)$$

(18) - ifoda asosida hisoblangan miqdorlar bo‘yicha tuzilgan muvozanat tezlanishining ta’sir yo‘nalishiga bog‘liqligi 2-rasmda tasvirlangan.

Undan tebranish jarayonida grunt tuzilmasining buzilishi ta’sir yo‘nalishiga bog‘liq ekanligini kuzatish mumkin. Ushbu holat barcha yo‘nalishlarga ta’luqli bo‘lib, ayniqsa  $15^0$ - $30^0$  burchaklar orasidagi tebranish grunt tuzilmasining buzilishiga katta ta’sir ko‘rsatishini kuzatish mumkin.

Demak ushbu burchak ostidagi tebranishlar ta’sirida grunt tuzilmasi nisbatan tez va jadallik bilan buzilish holati yuzaga keladi. Ushbu holat L.R.Stavnitser tomonidan tebranuvchi stabilometr asbobida o‘tkazilgan tajribalarda ham kuzatilgan. Unda qumli grunt tuzilmasini buzilishiga  $30^0$  -  $45^0$  burchaklar oralig‘idagi tebranishlar katta ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan.


Dissertatsiyaning “**Tebranna harakat yo‘nalishining muvozanat tezlanishiga ta’sirini tadqiqotlash**” deb nomlangan uchinchi bobida izlanishlar maqsadiga muvofiq tajriba obyekti sifatida turli genesis va tuzilmalarga ega Xorazm viloyati tegrasida keng tarqalgan qumli gruntlardan foydalandik. Ushbu gruntlar haqidagi ma’lumotlar I-bobda keltirilgan. Tadqiqotlar 4 turdagi grunt namunalari ustida olib borildi. Tajribalar suvga to‘yingan va har xil zichlik holatidagi qumlarda o‘tkazildi. Izlanishlar ilmiy rahbar yo‘llanmasi bo‘yicha muallif tomonidan barpo etilgan turli burchak ostida tebranishlar yuzaga keltiruvchi maxsus uskunada olib borildi.

Tadqiqotga jalb qilingan gruntlar ko‘rsatkichlarining sezilarli farqlanishi, ayniqsa, ular zarralarining zichligi, g‘ovakligi, ishqalanish va bog‘lanish kuchlarining turiligi olingan natijalarni keng ko‘lamda tadbiqini ta’minlaydi.

(18)-ifodaga e’tiborni qaratamiz.

$$\alpha_M = \frac{2\pi g \gamma_w z t g \varphi_n}{\gamma H (4 + tg\beta)}$$

Ushbu ifodaga asosan qumli zaminda barpo etilgan inshootning zilzila ta’siriga turg‘unligi (muvozanat tezlanishi)  $\alpha_M$  gruntning mustahkamlik ko‘rsatkichlariga oid



**2-rasm. Muvozanat tezlanishi va seysmik ta’sir orasidagi bog‘lanish grafiqi: II-grunt, III-grunt, IV-grunt.**


ichki omillar: ichki ishqalanish burchagi ( $\varphi_n$ ), gruntning sof og'irligidan yuzaga keluvchi zo'riqishning tik tashkil etuvchilari ( $\gamma_w, z$ ), grunt qatlamining qalinligi, shuningdek tashqi omillar: tebranma harakatning tezlanishi ( $\alpha_c$ ) va uning tashkil etuvchilari: amplituda ( $A$ ), chastota ( $f$ ), davr ( $T$ ) va seysmik ta'sir burchagi ( $\beta$ ) ga bog'liq ekanligini kuzatish mumkin.

Bir vaqtning o'zida ko'plab omillarga bog'liq bo'lgan qumli zamin turg'unligini aniqlashga oid yuqoridagi ifodani amaliy tadqiqotidan avval uni tajribada sinash masalasini muhim deb bildik.

Quyidagi tajriba izlanishlar maqsadidan kelib chiqqan holda turli burchak ostidagi tebranishlar ta'sirida qumli zaminlarning dinamik turg'unligiga ( $\alpha_m$ ) ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiqotlashga bag'ishlanadi.

Ushbu muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlarda quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratildi:

- turli burchak ostidagi tebranma harakat ta'sirida gruntning mustahkamlik ko'rsatkichlarini muvozanat tezlanishiga ta'sirini aniqlash;
- muvozanat tezlanishiga dinamik kuch va uning tashkil etuvchilari ta'sirini o'rganish;
- muvozanat tezlanishiga turli burchak ostidagi dinamik ta'sirni aniqlashga oid



**3-rasm. Muvozanat tezlanishi bilan grunt zichligi orasidagi bog'lanish grafiqi: II-grunt; III-grunt; IV-grunt.**

orasidagi bog'lanish kuchi saqlanar ekan unda muvozanat tezlanishining miqdori birmuncha yuqori bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek qumlarda bog'lanish kuchlari ularning zich va kam namlangan holatlarida u yoki bu miqdorda uchrashi mumkin. Qumlardagi bog'lanish kuchlari u yoki bu ta'sirda (masalan, dinamik)

(18)-ifoda yordamidagi hisobiy ko'rsatkichlarni tajriba natijalari bilan taqqoslash.

Quyida tadqiqot ishlari olib borilgan gruntlarning fizikoviy mexanik ko'rsatkichlari, tajriba uskunasi, o'lchov asboblari va tajriba uslublari haqida so'z yuritiladi.


Turli genezisga ega bo'lgan qumlarning tebranish jarayonidagi mustahkamligini tahlillash ularning suvga to'yingan holati uchun alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Har qanday qumlarning suvga to'yinishi ularga xos bo'lgan muvozanat tezlanishini kamaytiradi. Bu esa ushbu holatdagi qumda bog'lanish kuchlarining bo'lmasligi va ishqalanish kuchlarini esa, muallaqlanish ta'sirida kamayishi haqida dalolat beradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, agar tebranayotgan qum zarralari

